



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 72 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education.....	10
Alimov Jamshid Ravshanovich	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
Yorkulov Zafarjon Bakirovich	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?.....	26
Dilnura Rustamovna Xamrayeva	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida.....	33
Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari.....	40
Rahmatova Nasiba Sobirovna	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi.....	46
Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.....	50
Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
Sobir Azizov	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli.....	57
Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
E. E. Jumayev	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi.....	65
Jumayeva Gulxan Amrullayevna	



MUAMMOLI TA'LIM TEKNOLOGIYASI ORQALI TALABALARNING KREATIV FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: "MUAMMO" DIVERGENT-KONVERGENT O'QUV SIKLI

Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Texnika fanlari doktori, professor v.b.,

Yusupov Muxtorbek Roximovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Algebra va matematik analiz kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada muammoli ta'lim texnologiyasi orqali pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi tadqiq etilgan. Kreativ fikrlash muammoni aniqlash va qayta ifodalash, turli yo'nalishdagi g'oyalarni yaratish, original yechimlarni taklif qilish, ularni belgilangan mezonlar asosida baholash, takomillashtirish hamda yangi vaziyatlarga ko'chirishni qamrab oluvchi integrativ kompetensiya sifatida talqin qilingan. Tadqiqotda muammoli ta'limning kreativ rivojlanishga ta'sir etuvchi kognitiv, motivatsion va ijtimoiy mexanizmlari nazariy tahlil qilinib, ularni yaxlit o'quv jarayonida amalga oshirishga xizmat qiluvchi "MUAMMO" divergent-konvergent o'quv sikli taklif etilgan. Mazkur sikl muammoga kirish, muammoni qayta anglash, alternativ g'oyalarni yaratish, maqbul variantni mezonlar asosida tanlash, prototipni sinash va natijani refleksiv baholash jarayonlarini o'zaro bog'laydi. Shuningdek, autentik va ochiq muammo, psixologik xavfsiz muhit, bosqichli pedagogik ko'mak, dialogik hamkorlik, prototiplash hamda jarayonga yo'naltirilgan formativ baholash metodikaning asosiy pedagogik shart-sharoitlari sifatida asoslangan. Tadqiqot natijasida talabalarining muammoni qayta qo'yish, fikrlash ravonligi, moslashuvchanligi, originalligi, yechimni batafsillash-tirish, amaliy qiymatini asoslash va refleksiv transfer ko'nikmalarini baholash mezonlari aniqlashtirilgan. Taklif etilgan sikl pedagogika yo'nalishidagi fanlar mazmuniga moslashtirilishi hamda talabalarni noaniq kasbiy-pedagogik vaziyatlarda mustaqil, asoslangan va ijodiy qaror qabul qilishga tayyorlashda qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: muammoli ta'lim, kreativ fikrlash, divergent fikrlash, konvergent fikrlash, o'quv sikli, muammoni qayta qo'yish, pedagogik ko'mak, prototiplash, formativ baholash, refleksiv transfer.

Abstract: This article examines the development of creative thinking skills among students of pedagogical higher education institutions through problem-based learning technology. Creative thinking is interpreted as an integrative competence encompassing the identification and reframing of problems, generation of diverse ideas, proposal of original solutions, their evaluation and improvement according to established criteria, and transfer to new situations. The study theoretically analyzes the cognitive, motivational, and social mechanisms through which problem-based learning influences creative development and proposes the "MUAMMO" divergent-convergent learning cycle for their implementation within a coherent educational process. This cycle integrates engagement with a problem situation, reconsideration of the problem, generation of alternative ideas, criterion-based selection of an appropriate option, prototype testing, and reflective evaluation of results. An authentic and open-ended problem, a psychologically safe environment, phased instructional scaffolding, dialogic collaboration, prototyping, and process-oriented formative assessment are substantiated as the principal pedagogical conditions for implementing the methodology. The study clarifies the criteria for assessing students' abilities to reframe problems, demonstrate fluency, flexibility, and originality of thinking, elaborate solutions, justify their practical value, and perform reflective transfer. The proposed cycle can be adapted to the content of pedagogical disciplines and applied to prepare students for independent, evidence-based, and creative decision-making in uncertain professional and pedagogical situations.

Key words: problem-based learning, creative thinking, divergent thinking, convergent thinking, learning cycle, problem reframing, instructional scaffolding, prototyping, formative assessment, reflective transfer.



Аннотация: В статье исследуется развитие навыков креативного мышления студентов педагогических высших учебных заведений посредством технологии проблемного обучения. Креативное мышление рассматривается как интегративная компетенция, включающая выявление и переформулирование проблемы, генерирование разнонаправленных идей, предложение оригинальных решений, их оценивание и совершенствование на основе установленных критериев, а также перенос в новые ситуации. В исследовании теоретически проанализированы когнитивные, мотивационные и социальные механизмы влияния проблемного обучения на развитие креативности и предложен дивергентно-конвергентный учебный цикл "MUAMMO", обеспечивающий их реализацию в целостном образовательном процессе. Данный цикл объединяет в единую систему вхождение в проблемную ситуацию, переосмысление проблемы, генерирование альтернативных идей, критериальный выбор приемлемого варианта, испытание прототипа и рефлексивное оценивание результатов. Аутентичная и открытая проблема, психологически безопасная среда, поэтапная педагогическая поддержка, диалогическое сотрудничество, прототипирование и ориентированное на процесс формативное оценивание обоснованы как основные педагогические условия реализации методики. В результате исследования уточнены критерии оценивания способности студентов переформулировать проблему, беглости, гибкости и оригинальности мышления, детализации решения, обоснования его практической ценности и осуществления рефлексивного переноса. Предложенный цикл может быть адаптирован к содержанию дисциплин педагогического направления и применён для подготовки студентов к самостоятельному, обоснованному и творческому принятию решений в неопределённых профессионально-педагогических ситуациях.

Ключевые слова: проблемное обучение, креативное мышление, дивергентное мышление, конвергентное мышление, учебный цикл, переформулирование проблемы, педагогическая поддержка, прототипирование, формативное оценивание, рефлексивный перенос.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarni tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi ijrochi sifatida emas, balki murakkab vaziyatlarni mustaqil tahlil qiluvchi, muammoni turli nuqtayi nazardan ko'ra oluvchi va asoslangan yechimlar yaratuvchi mutaxassis sifatida tayyorlash muhim vazifaga aylandi. Ijtimoiy, texnologik va kasbiy jarayonlarning tez o'zgarishi pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalaridan bilimlarni takrorlash bilan cheklanmay, ularni yangi sharoitlarda ijodiy qo'llashni talab etadi. Shu sababli kreativ fikrlash bo'lajak pedagogning kasbiy kompetentligini belgilovchi asosiy tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi. Kreativ fikrlash muammoni sezish, uning yashirin sabablarini aniqlash, vaziyatni qayta ifodalash, turli g'oyalarni yaratish, original variantlarni tanlash va ularni amaliy mezonlar asosida takomillashtirish jarayonlarini qamrab oladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi mazkur ko'nikmalarni rivojlantirish uchun keng didaktik imkoniyatlarga ega. Ushbu texnologiyada o'quv jarayoni tayyor ma'lumotni bayon qilishdan emas, balki talabalarda bilishga ehtiyoj hosil qiladigan real yoki realga yaqin muammoli vaziyatdan boshlanadi. Talabalar mavjud bilimlarini faollashtiradi, bilishdagi bo'shliqlarni aniqlaydi, zarur axborotni izlaydi, muqobil yechimlarni muhokama qiladi va tanlangan qarorning oqibatlarini baholaydi. Bunday faoliyat mustaqillik, izlanish motivatsiyasi, hamkorlik va refleksiyani kuchaytiradi. Biroq har qanday muammoli topshiriq avtomatik ravishda kreativ fikrlashni shakllantirmaydi. Bitta to'g'ri javobga yo'naltirilgan vazifalar, o'qituvchining ortiqcha nazorati, g'oyalarni erta tanqid qilish va faqat yakuniy mahsulotni baholash talabalarning ijodiy faolligini cheklashi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, muammoli ta'lim jarayonida divergent va konvergent fikrlashni maqsadli uyg'unlashtirish zarur. Divergent faoliyat muammoni turli jihatlaridan ko'rish va ko'plab alternativallarni yaratishga xizmat qilsa, konvergent faoliyat ularni dalillilik, foydalilik, etik maqbullik hamda amalga oshirish imkoniyati bo'yicha saralashni ta'minlaydi. Ushbu ikki rejimning izchil va takroriy almashinuvi kreativ g'oyani amaliy qiymatga ega yechimga aylantiradi.

Tadqiqotning maqsadi muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan "MUAMMO" divergent-konvergent o'quv siklining mazmuni, pedagogik shart-sharoitlari va baholash mezonlarini asoslashdan iborat. Taklif etilayotgan yondashuv muammoni qayta qo'yish, g'oyalarni kengaytirish, mezonli tanlash, prototiplash, takomillashtirish va refleksiv transferni yagona metodik tizimda birlashtiradi. Natijada talabalarning noaniq kasbiy-pedagogik vaziyatlarda mustaqil fikrlashi, hamkorlikda qaror ishlab chiqishi va o'z strategiyasini yangi sharoitlarga moslashtirishi uchun zarur pedagogik imkoniyatlar yaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Muammoli ta'lim va kreativ fikrlashga oid ilmiy adabiyotlar mazkur tushunchalarning o'zaro bog'liqligini turli nazariy yondashuvlar asosida yoritadi.

Barrows (1986) muammoli ta'lim metodlarini tasniflab, muammoni bilimlarni egallash va kasbiy fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida izohlaydi ^[1].



Hmelo-Silver (2004) hamda Savery (2006) muammoli ta'lim jarayonida talabalarning mavjud bilimlarini faollashtirish, bilim bo'shliqlarini aniqlash, mustaqil izlanish va hamkorlikdagi yechim yaratish mexanizmlarini asoslaydi ^[2].

Hung (2006) taklif etgan 3C3R modeli muammo mazmuni, konteksti va fanlararo aloqalarni tadqiq qilish, mulohaza yuritish hamda refleksiya jarayonlari bilan uyg'unlashtiradi ^[3].

Jonassen (2011) murakkab va yetarlicha tuzilmagan muammolarni hal qilishda muqobil qarashlar, dalillar va kontekstual cheklovlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi ^[4].

Kreativlik bo'yicha Amabile (1996) ijodiy natijaning shaxsiy motivatsiya va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligini ko'rsatadi ^[5].

Runco va Jaeger (2012) kreativlikni yangilik hamda vazifaga moslikning birligi sifatida ta'riflaydi. Kaufman va Beghetto (2009) kreativ rivojlanishni turli darajalarda tushuntirib, talabaning individual kashfiyotlarini ham ta'limiy qiymatga ega natija sifatida baholaydi ^[6].

Davies va boshqalar (2013) ochiq topshiriqlar, hamkorlik, tanlov imkoniyati va xavfsiz muhitni kreativ ta'limning muhim shartlari sifatida belgilaydi. Deci va Ryan (2000) avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlikning ichki motivatsiyaga ta'sirini asoslaydi ^[7].

Hattie va Timperley (2007) rivojlantiruvchi teskari aloqaning keyingi faoliyatni yo'naltirishdagi rolini ochib beradi. OECD (2024) esa kreativ fikrlashni turli g'oyalarni yaratish, baholash va takomillashtirishdan iborat yaxlit kompetensiya sifatida talqin qiladi. Mazkur ilmiy qarashlar "MUAMMO" siklining nazariy va metodik asoslarini shakllantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda muammoli ta'lim texnologiyasi va kreativ fikrlash o'rtasidagi nazariy hamda metodik bog'lanishlarni aniqlashga qaratilgan sifat yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqot materiallarini muammoli ta'lim, kreativ pedagogika, divergent va konvergent fikrlash, ta'limiy scaffolding, hamkorlikdagi o'rganish, prototiplash, refleksiya hamda formativ baholashga oid ilmiy manbalar tashkil etdi. Manbalarni tanlashda ularning nazariy ahamiyati, oliy ta'lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyati va kreativ fikrlashning kuzatiladigan ko'rsatkichlarini yoritish darajasi hisobga olindi. Ilmiy adabiyotlar mazmuni muammo dizayni, talaba faoliyati, o'qituvchi yordami, psixologik muhit, baholash vositalari va kutiladigan natijalar kategoriyalari bo'yicha tizimlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik modellashtirish, mazmuniy sintez va operatsionlashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali kreativlikning yangilik va amaliy qiymatga asoslangan mohiyati, muammoli ta'limning didaktik xususiyatlari hamda ularning o'zaro ta'sir mexanizmlari aniqlandi. Qiyosiy tahlilda an'anaviy muammo yechish, muammoli ta'lim va loyiha asosida o'qitishning o'xshash hamda farqli jihatlari ko'rib chiqildi. Pedagogik modellashtirish yordamida muammoni anglashdan refleksiv transfergacha bo'lgan faoliyatlar ketma-ketligi "MUAMMO" divergent-konvergent o'quv sikliga birlashtirildi. Mazmuniy sintez esa pedagogik shartlar, o'quv bosqichlari va kreativ natijalar o'rtasidagi aloqalarni yaxlit konseptual tuzilishga keltirish imkonini berdi.

Modelni ishlab chiqishda nazariy izchillik, konstruktiv moslik, operatsionallik, baholanuvchanlik, moslashuvchanlik va psixologik xavfsizlik asosiy metodologik mezonlar sifatida belgilandi. Har bir bosqich uchun didaktik maqsad, talaba faoliyati, o'qituvchining fasilitatorlik savollari, hosil qilinadigan o'quv artefakti hamda kuzatiladigan kreativ ko'rsatkich o'zaro muvofiqlashtirildi. Divergent faoliyatda muammoni qayta ifodalash, individual brainwriting, analogiya va istiqbol almashtirish usullariga; konvergent faoliyatda esa qaror matritsasi, dalillarni taqqoslash, cheklovlarni baholash va maqbul variantni tanlashga ustuvorlik berildi ^[8].

Kreativ rivojlanishni baholash uchun individual va guruh natijalarini ajratishga asoslangan portfel yondashuvi ishlab chiqildi. Portfel tarkibiga muammo xaritasi, individual g'oya jurnali, alternativ yechimlar klasteri, qaror matritsasi, prototip, qayta ishlash izlari va refleksiya materiali kiritildi. Baholash mezonlari sifatida muammoni qayta qo'yish, ravonlik, moslashuvchanlik, originallik, batafsillik, amaliy qiymat va refleksiv transfer qabul qilindi. Model pedagogika yo'nalishidagi fanlarga moslashtirish, keyinchalik ekspert baholashi va tajriba-sinov ishlari orqali empirik tekshirishga mo'ljallangan konseptual-metodik tuzilma sifatida shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini muammoli ta'lim asosida rivojlantirishga xizmat qiluvchi "MUAMMO" divergent-konvergent o'quv siklining konseptual-metodik tuzilmasi ishlab chiqildi. Model kreativ natijani alohida metod yoki bir martalik ijodiy topshiriq mahsuli sifatida emas, balki pedagogik shartlar, bosqichma-bosqich tashkil etilgan talaba faoliyati va uzluksiz teskari aloqaning o'zaro ta'siri sifatida ifodalaydi. Sikl muammoga kirish, uni qayta anglash, alternativ g'oyalarni yaratish, mezonlar asosida maqbul variantni tanlash, model yoki prototipni sinash hamda natijani refleksiv baholash jarayonlarini birlashtirdi.



Mazkur bosqichlar qat'iy chiziqli emas: yangi dalil, prototipning ishlamasligi yoki foydalanuvchi fikri talabani oldingi bosqichlarga qaytarishi mumkin.

Model samaradorligini ta'minlovchi asosiy pedagogik shartlar ham aniqlandi. Birinchi shart talabalarga bir nechta maqbul yechim yaratish imkonini beradigan autentik va yetarlicha ochiq muammoni qo'llashdan iborat. Ikkinchi shart noodatiy g'oyani erkin ifodalash, xatoni o'rganish manbai sifatida qabul qilish va fikrni dalil asosida o'zgartirish imkonini beruvchi psixologik xavfsiz muhitni yaratishni nazarda tutadi. Uchinchi shart divergent va konvergent faoliyatni bosqichli pedagogik ko'mak bilan boshqarishni talab etadi. Dialogik hamkorlik, rollar almashinuvi, multimodal resurslar, tezkor prototiplash, formativ baholash va refleksiya modelning keyingi muhim shartlari sifatida belgilandi ^[9].

Natijalarga ko'ra, divergent bosqichda individual fikrlashni guruh muhokamasidan oldin tashkil etish dominant ishtirokchilar ta'sirini kamaytirib, har bir talabaning mustaqil g'oya yaratishiga sharoit yaratadi. G'oyalarni dastlab baholamaslik, brainwriting, analogiya, istiqbolni almashtirish va majburiy bog'lanish usullari fikrlash ravonligi hamda moslashuvchanligini qo'llab-quvvatlaydi. Konvergent bosqichda esa yechimlar dalillilik, foydalanuvchi ehtiyoji, resurs, etik maqbullik va amalga oshirish imkoniyati bo'yicha taqqoslanadi. Natijada originallik amaliy qiymat bilan uyg'unlashtiriladi.

Kreativ rivojlanishni aniqlash uchun yetti o'lchovli baholash tizimi shakllantirildi. U muammoni sezish va qayta qo'yish, ravonlik, moslashuvchanlik, originallik, batafsillik va prototiplash, qiymat va amalga oshirish, refleksiv qayta ishlash va transfer mezonlarini qamrab oldi. Individual g'oya jurnali, muammo xaritasi va refleksiya shaxsiy rivojlanishni, guruh qaror matritsasi hamda prototipi esa hamkorlikdagi integratsiyani ko'rsatishi aniqlandi. Shunday qilib, taklif etilgan model kreativlikni faqat g'oyalar soni bilan emas, muammoni yangicha ko'rishdan boshlab asoslangan yechimni yangi vaziyatga ko'chirishgacha bo'lgan yaxlit jarayon sifatida baholash imkonini beradi.

Olingan natijalar muammoli ta'lim bilan kreativ fikrlash o'rtasidagi bog'lanish bevosita va avtomatik emasligini ko'rsatadi. Talabaga muammoli vaziyat taqdim etishning o'zi turli va original yechimlarning yaratilishini kafolatlamaydi. Muammoning tuzilishi, talabaning boshlang'ich bilimlari, o'qituvchi ko'magining vaqti, guruhdagi muloqot me'yorlari hamda baholash talablari kreativ faoliyatning yo'nalishini belgilaydi. Agar vazifa faqat bitta to'g'ri javobni nazarda tutsa, talaba muammoni qayta ko'rib chiqish o'rniga o'qituvchi kutgan algoritmi izlaydi. Aksincha, haddan tashqari noaniq va zarur tayanchlardan xoli topshiriq kognitiv yukni oshirib, izlanishni tartibsiz axborot yig'ishga aylantirishi mumkin. Shu sababli ochiqlik va metodik tuzilmaning muvozanati "MUAMMO" siklining asosiy xususiyati hisoblanadi.

Taklif etilgan modelning nazariy ahamiyati kreativlikning divergent va konvergent tarkiblarini yagona iterativ jarayonda birlashtirishida namoyon bo'ladi. Divergent bosqich imkoniyatlar maydonini kengaytiradi, biroq yaratilgan variantlarning ko'pligi hali kreativ natijani anglatmaydi. Konvergent fikrlash g'oyalarni dalil, foydalilik, amalga oshirish imkoniyati va etik oqibatlar asosida saralab, original fikrni amaliy qiymatga ega yechimga aylantiradi. Shuning uchun konvergentsiya kreativlikni cheklovchi emas, uni mazmunan yakunlovchi faoliyat sifatida qaralishi kerak. Prototiplash va teskari aloqa esa tanlangan g'oyadagi yashirin taxminlarni aniqlash hamda uni yangi dalillar asosida qayta ishlash imkonini beradi.

Modelda psixologik xavfsizlikka alohida e'tibor qaratilishi ham muhimdir. Talaba xato yoki noodatiy fikr salbiy baholanishidan xavotir olsa, tanish va xavfsiz variantlarni tanlaydi. Kechiktirilgan tanqid, individual brainwriting, guruh rollarini almashtirish va fikrni o'zgartirishni ijobiy holat sifatida qabul qilish ijodiy tavakkal qilish uchun qulay muhit yaratadi. Bunda o'qituvchi tayyor javobni taqdim etuvchi shaxs emas, balki savollar va zarur tayanchlar orqali fikrlash jarayonini boshqaruvchi fasilitator vazifasini bajaradi ^[10].

Taklif etilgan yondashuv pedagogika yo'nalishidagi darslarni loyihalashda amaliy ahamiyatga ega. Bo'lajak pedagoglar dars jarayonidagi motivatsiya pasayishi, o'quvchilar o'rtasidagi farqlar, inklyuziv muhit yoki raqamli vositalardan foydalanish kabi vaziyatlarni turli manfaatdor tomonlar nuqtayi nazaridan tahlil qilishi mumkin. Biroq model hozircha konseptual xususiyatga ega bo'lib, uning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali tekshirilishi lozim. Kelgusida baholash rubrikasining ekspert validligi, baholovchilararo ishonchliligi, joriy etish sodiqligi va kreativ ko'nikmalarning yangi pedagogik vaziyatlarga ko'chirilishi alohida tadqiq etilishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muammoli ta'lim texnologiyasi talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun katta didaktik imkoniyatlarga ega. Biroq bu imkoniyat muammoli topshiriqni taqdim etishning o'zi bilan amalga oshmaydi. Kreativ natijaga erishish muammoning mazmunan ahamiyatli va yetarlicha ochiq bo'lishi, talabalarning mustaqil fikrlashi uchun psixologik xavfsiz muhit yaratilishi, divergent va konvergent faoliyatlarning maqsadli boshqarilishi, hamkorlikdagi muloqotning tashkil etilishi, prototiplash imkoniyatlari hamda jarayonga yo'naltirilgan formativ baholashning o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Ushbu tarkibiy qismlardan birining yetarli darajada amalga oshirilmasligi muammoli ta'limning kreativ rivojlantiruvchi ta'sirini cheklashi mumkin ^[11].



Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan "MUAMMO" divergent-konvergent o'quv sikli muammoni tushunishdan boshlab yechimni yangi vaziyatga ko'chirishgacha bo'lgan faoliyatlarni yagona metodik tizimga birlashtiradi. Siklda talabalar dastlab muammoli vaziyatning ziddiyatlari, manfaatdor tomonlari va yashirin taxminlarini aniqlaydi, so'ng muammoni turli nuqtayi nazarlardan qayta ifodalaydi. Keyingi jarayonda muqobil g'oyalar yaratiladi, ular mazmuniy toifalarga ajratiladi va dalillilik, amaliy qiymat, resurs, etik maqbullik hamda amalga oshirish imkoniyati mezonlari asosida saralanadi. Tanlangan yechim prototip shaklida sinovdan o'tkazilib, olingan teskari aloqa asosida qayta ishlanadi. Refleksiya esa qo'llanilgan fikrlash strategiyalarini anglash va ularni boshqa kasbiy-pedagogik vaziyatlarga ko'chirishga xizmat qiladi ^[12].

Taklif etilgan yondashuv kreativlikni faqat ko'p yoki noodatiy g'oya yaratish bilan chegaralamaydi. Unda muammoni qayta qo'yish, fikrlash ravonligi, moslashuvchanlik, originallik, yechimni batafsillashtirish, prototiplash, amaliy qiymatni asoslash va refleksiv transfer o'zaro bog'langan natijalar sifatida qaraladi. Individual g'oya jurnali, muammo xaritasi, guruh qaror matritsasi, prototip va qayta ishlash izlarini birgalikda baholash har bir talabaning shaxsiy rivojlanishini guruh mahsulotidan ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

"MUAMMO" sikli pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni noaniq, ko'p mezonli va o'zgaruvchan kasbiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlashda qo'llanilishi mumkin. Uni turli pedagogik fanlarga moslashtirishda modelning asosiy yadrosi saqlanib, muammo mazmuni, prototip shakli va qiymat mezonlari fan xususiyatiga muvofiq o'zgartiriladi. Kelgusida modelning samaradorligini kvazi-eksperimental tadqiqotlar orqali tekshirish, baholash vositalarining ishonchlilikini aniqlash va kreativ strategiyalarning uzoq muddatli transferini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Natijada mazkur metodika oliy pedagogik ta'limda kreativ, mas'uliyatli va dalillarga asoslangan fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barrows, H. S. (1986). A taxonomy of problem-based learning methods. *Medical Education*, 20(6), 481-486.
2. Runco, M. A., & Jaeger, G. J. (2012). The standard definition of creativity. *Creativity Research Journal*, 24(1), 92-96.
3. Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-based learning: What and how do students learn? *Educational Psychology Review*, 16(3), 235-266.
4. Amabile, T. M. (1996). *Creativity in context*. Westview Press.
5. Savery, J. R. (2006). Overview of problem-based learning: Definitions and distinctions. *Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning*, 1(1), 9-20.
6. Kaufman, J. C., & Beghetto, R. A. (2009). Beyond big and little: The four C model of creativity. *Review of General Psychology*, 13(1), 1-12.
7. Hung, W. (2006). The 3C3R model: A conceptual framework for designing problems in PBL. *Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning*, 1(1), 55-77.
8. Davies, D., Jindal-Snape, D., Collier, C., Digby, R., Hay, P., & Howe, A. (2013). Creative learning environments in education: A systematic literature review. *Thinking Skills and Creativity*, 8, 80-91.
9. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The power of feedback. *Review of Educational Research*, 77(1), 81-112.
10. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The "what" and "why" of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. *Psychological Inquiry*, 11(4), 227-268.
11. Jonassen, D. H. (2011). *Learning to solve problems: A handbook for designing problem-solving learning environments*. Routledge.
12. OECD. (2024). *PISA 2022 results: Creative minds, creative schools*. OECD Publishing.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.